

# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2025-yil 23-may, № 104 (8999) Juma

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# SAMARALI VA DO‘STONA MULOQOTLAR O‘ZBEKISTON – SLOVENIYA MUNOSABATLARIDA YORQIN SAHIFA OCHDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Sloveniya Respublikasi Prezidenti Natasha Pirs Musarning taklifiga binoan 21-22-may kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.**



22-may kuni Lyublyanadagi Kongress maydonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbarini Sloveniya Prezidenti Natasha Pirs Musar samimiy kutib oldi. Oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saflandi. Harbiy orkestr O‘zbekiston va Sloveniya davlat madhiyalarini ijro etdi.

Ikki mamlakat rahbarlari faxriy qorovul safi oldidan o‘tib, rasmiy delegatsiyalar a’zolari bilan salomlashdilar.

Rasmiy marosimdan so‘ng “Zvezda” bog‘ida urush qurbonlari xotirasiga hurmat hamda tinchlik va insonparvarlik g‘oyalariga sadoqat ramzi sifatida Barcha urushlar qurbonlari yodgorligiga gul qo‘yildi.

Shundan so‘ng Lyublyana shahridagi Prezident saroyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Sloveniya Respublikasi Prezidenti Natasha Pirs Musarning tor doiradagi va rasmiy delegatsiyalar ishtirokidagi muzokaralari bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari Sloveniya yetakchisiga samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, so‘nggi yigirma yilda ilk bor o‘tkazilayotgan oliy darajadagi tadbirlar ikki mamlakat munosabatlarida yangi bosqichning boshlanishi sifatida tarixga kirishini ta’kidladi.

O‘zbekiston va Sloveniya o‘rtasidagi amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Siyosiy muloqot, turli darajadagi aloqalar va ishbilarmonlik uchrashuvlari faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Ikki mamlakat BMT va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida bir-birini qo‘llab-quvvatlab kelmoqda.

Keyingi yillarda tovar ayirboshlash uch barobar ko‘paydi. Madaniyat va turizm sohalaridagi almashinuvlar kengaymoqda. O‘zbekistonda Sloveniya fuqarolari uchun vizasiz rejim joriy etilgan.

Ikki tomonlama munosabatlarga tizimli tus berish uchun oliy va yuqori darajadagi muntazam muloqotni yo‘lga qo‘yish muhimligi ta’kidlandi.

Tovar ayirboshlashni ko‘paytirish va uning hajmini, eng avvalo, mahsulotlar turini kengaytirish va import o‘rnini bosish hisobiga birinchi bosqichda 500 million yevroga yetkazish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekistondan to‘qimachilik, meva-sabzavotlar, mineral o‘g‘itlar, mis mahsulotlari va boshqa sanoat tovarlari, Sloveniyadan esa dori-darmonlar, ilg‘or texnologiyalar va uskunalar yetkazib berish shular jumlasidan.

Sloveniyaning “Koper” porti salohiyatidan Yevropa Ittifoqi bozoriga chiqish uchun logistika xabi sifatida foydalanish imkoniyatlari o‘rganiladi.

Sloveniyaning yetakchi kompaniyalari bilan Sanoat kooperatsiyasi dasturini qabul qilish, shuningdek, zamonaviy asbob-uskunalar, sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, farmatsevtika mahsulotlari, shu jumladan, asal va shifobaxsh giyohlarga asoslangan dori ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, energetika obyektlarini qurish va modernizatsiya qilish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

Mehnat migratsiyasi sohasida tizimli hamkorlik qilish uchun til, kasbiy ko‘nikmalar va mehnat standartlari bo‘yicha o‘qitish, moslashtirish dasturlarini ishlab chiqqan holda Uyushgan mehnat migratsiyasi to‘g‘risidagi bitimni tayyorlashga kelishib olindi.

Turizmni, ayniqsa, qishloq va tog‘li hududlarda rivojlantirish istiqbolli yo‘nalish sifatida belgilandi. Ta’lim sohasida tomonlar diplomlarni o‘zaro tan olish to‘g‘risidagi bitimni imzolashga hamda Lyublyana va Maribor universitetlari bilan qo‘shma ta’lim dasturlarini yo‘lga qo‘yishga kelishib oldilar.

Bundan tashqari, kelgusi yilda Toshkent shahrida ikki mamlakat oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlari ishtirokida Yoshlarning innovatsion loyihalari forumi o‘tkaziladi.

Gumanitar almashinuvni mustahkamlash maqsadida tomonlar o‘zaro madaniyat kunlari va Lyublyana shahrida O‘zbek kinosi haftaligini o‘tkazish tashabbusini ilgari surdilar.

Belgilangan barcha vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida Hukumatlararo komissiyaning birinchi yig‘ilishini joriy yil iyul oyida Lyublyana shahrida tashkil etishga qaror qilindi.

Uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari Sloveniya Prezidenti Natasha Pirs Musarga o‘zi uchun qulay vaqtda javob tashrifi bilan O‘zbekistonga kelishni taklif etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Sloveniya Respublikasiga rasmiy tashrif doirasida ushbu mamlakat Bosh vaziri Robert Golob bilan uchrashuv o‘tkazdi.

O‘zbekiston bilan Sloveniya o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik va amaliy sheriklikni, eng avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sohalarda kengaytirish masalalari diqqat markazida bo‘ldi.

Bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi muzokaralarning samarali natijalari yuksak baholandi.

Savdo, investitsiya va kooperatsiya sohalarida birgalikdagi ishlarni faollashtirish muhim ekani ta’kidlandi. Tashrif doirasida o‘tkaziladigan biznes forumi yangi aloqalarni o‘rnatish va qo‘shma loyihalarni ilgari surish uchun samarali maydon bo‘lishi ta’kidlandi.

Talab yuqori bo‘lgan mahsulotlarni o‘zaro yetkazib berishni ko‘paytirish orqali tovar ayirboshlash hajmini 500 million yevroga yetkazish choralari ko‘rib chiqildi. “GSP+” preferensiyalar tizimi va imzolangan standartlashtirish to‘g‘risidagi bitim ham savdoning o‘sishiga turtki beradi.

Texnologik modernizatsiyaga urg‘u bergan holda Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish dasturi tayyorlanadi. Shu ma’noda, Sloveniya yetakchi kompaniyalarining O‘zbekistonda elektrotexnika, uskunasozlik, farmatsevtika, “yashil” energetika, “aqlli” qishloq xo‘jaligi sohalarida loyihalarni amalga oshirish borasidagi intilishlari qo‘llab-quvvatlandi.

Bunday ishlab chiqarishlarni mamlakatimizda “Inpark” boshqaruvida Yevropa kompaniyalari uchun tashkil etilayotgan maxsus sanoat parkida joylashtirish taklif etildi.

Mehnat migratsiyasi sohasida tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida doimiy faoliyat yurituvchi ekspertlar guruhini tuzish va zarur normativ-huquqiy bazani tayyorlashga kelishib olindi.

Shuningdek, ikki mamlakat o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnovlarni yo‘lga qo‘yish va o‘zbek mahsulotlarining Yevropa Ittifoqi bozoriga chiqishi uchun “Koper” porti infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini birgalikda o‘rganishga kelishib olindi.

Madaniy-gumanitar almashinuvni kengaytirish masalalari muzokaralarning alohida mavzusi bo‘ldi. Ekologik turizmni, shu jumladan, tog‘li va qishloq hududlarida rivojlantirish bo‘yicha Sloveniya tajribasiga alohida qiziqish bildirildi.

Erishilgan kelishuvlar va imzolangan bitimlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida ikki mamlakat hukumatlari tomonidan keng qamrovli “Yo‘l xaritasi” qabul qilinadi.

Uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari Sloveniya Bosh vaziri Robert Golobni o‘zi uchun qulay vaqtda O‘zbekistonga tashrif bilan kelishga taklif etdi.

Lyublyana shahrida bo‘lib o‘tgan muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Sloveniya Respublikasi Bosh vaziri Robert Golob Qo‘shma bayonot imzoladilar.

Ular huzurida ikki tomonlama hujjatlarni almashish marosimi bo‘lib o‘tdi. Bular:

– diplomatik pasport egalarini viza talablaridan ozod qilish to‘g‘risida;

– ta’lim, fan va madaniyat sohalaridagi hamkorlik to‘g‘risida;

– transport va logistika sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;

– “aqlli” shaharlarni boshqarish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;

– standartlashtirish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;

– suv resurslarini boshqarish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida;

– turizm sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitimlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Sloveniya Milliy assambleyasi Raisi Urshka Klakochar-Zupanchich bilan uchrashuv o‘tkazdi.

O‘zbekiston bilan Sloveniya o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarni, shu jumladan, ikki mamlakat parlamentlari darajasida yanada rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Keyingi yillarda parlamentlararo almashinuvlar faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Joriy yil aprel oyida Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasida Sloveniya Milliy assambleyasi komissiyasi raisi Predrag Bakovich ishtirok etdi. Ikki mamlakat parlamentlarida “do‘stlik guruhlari” tashkil etilgan.

Qo‘shma loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va jadallashtirish uchun sohaviy qo‘mitalar darajasida parlamentlararo hamkorlik muhimligi qayd etildi.

Bundan tashqari, gumanitar hamkorlikni qo‘llab-quvvatlashda, jumladan, madaniyat va kino kunlari, ko‘rgazmalar o‘tkazish, oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida akademik almashinuvlarni rivojlantirishda parlamentlarning ko‘magi zarurligi qayd etildi.

Shuningdek, xalqaro parlament tashkilotlari doirasida tashabbuslarni muvofiqlashtirish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash kuchaytiriladi.

Birinchi O‘zbekiston – Sloveniya parlamentlararo forumini deputatlar va ekspertlar hamjamiyati ishtirokida Samarqand shahrida o‘tkazish taklif qilindi.

Parlamentlar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma “Yo‘l xaritasi”ni qabul qilishga kelishib olindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Sloveniya Respublikasi Prezidenti Natasha Pirs Musar bilan birgalikda qo‘shma biznes forumida ishtirok etdi.

Tadbirda ikki mamlakatning 100 dan ortiq yetakchi sanoat va savdo korxonalari rahbarlari hamda vakillari qatnashdi.

Sloveniya delegatsiyasi “KRKA”, “Duol”, “Emo Frite”, “Panvita”, “Medex”, “Tajfun Planina”, “Altado”, “UVC Solutions”, “Riko” va boshqa ko‘plab kompaniyalardan iborat bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida bugungi oliy darajadagi samarali muzokaralar O‘zbekiston – Sloveniya munosabatlarida, eng avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sohalarda yangi sahifa ochganini ta’kidladi.

Jahon iqtisodiyotidagi hozirgi murakkab davrda o‘zaro savdoni ko‘paytirish, kooperatsiya ko‘lamini kengaytirish va milliy iqtisodiyotlarni diversifikatsiya qilish uchun mavjud imkoniyatlardan foydalanish muhim ekani qayd etildi.

Ikki mamlakat iqtisodiyoti bir-birini to‘ldirishi mumkin bo‘lgan tarmoqlarda Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish dasturini qabul qilish muhimligi qayd etildi.

O‘zbekiston Prezidenti iqtisodiy sheriklikni yanada rivojlantirishning muhim yo‘nalishlarini ko‘rsatib o‘tdi.

Farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, elektrotexnika jihozlari, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, meva-sabzavotlarni saqlash va qayta ishlash, “yashil” energetika obyektlarini qurish va modernizatsiya qilish shular jumlasidan.

Transport jihatidan o‘zaro bog‘liqlikni, shu jumladan, Sloveniyaning “Koper” porti imkoniyatlaridan foydalanish va ikki mamlakat o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnovlarni yo‘lga qo‘yish orqali rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekistonda Sloveniya fuqarolari uchun joriy etilgan vizasiz tartib ishbilarmonlik, gumanitar va sayyohlik almashinuvlarini rivojlantirishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

O‘zbekiston yetakchisi uchrashuv ishtirokchilarining e’tiborini mamlakatimizda Yevropa kompaniyalari uchun tashkil etilayotgan maxsus sanoat parkiga qaratdi. U Sloveniya kompaniyalarini ushbu maxsus zonaning birinchi rezidentlari bo‘lishga taklif qildi.

Davlatimiz rahbari Sloveniya ishbilarmon doiralari O‘zbekiston bilan o‘zaro manfaatli sheriklikni rivojlantirishga qiziqish bildirib, aniq taklif va rejalarini ilgari surganlarini yuksak baholadi.

Yakunda Prezidentlar huzurida ikki tomonlama savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy bitimlarni almashish marosimi bo‘ldi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Sloveniya Respublikasiga rasmiy tashrifi yakunlandi.

**O‘zA.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

Aziz SANJAR:

## Alisher Navoiy nomidagi mukofot men uchun Nobel mukofoti kabi aziz va qadrlidir

*Vengriya poytaxti Budapesht shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammitida,asli turkiyalik olim Nobel mukofoti sohibi,O‘zbekiston Milliy universiteti faxriy doktori,Samarqand davlat universitetining faxriy professori,mening do‘stim Aziz Sanjar janobi oliylari turkiy dunyo birligiga qo‘shgan hissasi uchun Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotga sazovor bo‘ldi.*

### Iftixor

Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2021-yil 12-noyabr kuni Istanbulda o‘tkazilgan Turkiy davlatlar tashkilotining 8-sammitida ta’sis etilgan bo‘lib, u turkiy madaniyatni targ‘ib qilish, tinchlikni saqlash, xavfsizlikni ta’minlash, o‘zaro ishonchni mustahkamlash, shuningdek, turkiy xalqlar o‘rtasida turli sohalardagi hamkorlikni yanada kengaytirishga qo‘shgan alohida hissasi uchun har ikki yilda bir marta beriladi.

2022-yil 11-noyabrda Samarqandda o‘tkazilgan Turkiy davlatlar tashkiloti sammiti doirasida mazkur mukofotga Chingiz Aytmatov munosib ko‘rilgan va O‘zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovga tantanali ravishda topshirilgandi.

Samarqand davlat universiteti faxriy professori Aziz Sanjar Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotni olar ekan, shunday dedi:

***“Turkiyada tug‘ilib o‘sgan har bir turk bugungi O‘zbekiston tuproqlarini ham o‘z ichiga olgan tarixiy Vatan – Turkistonni o‘zining ota yurti deb hisoblaydi. Bu yurtga katta hurmat va e’tibor bilan qaraydi. Shu sababli ota yurtimizdan yetishib chiqqan sohibqiron Amir Temur, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino kabi olimlar, Alisher Navoiy, Bobur kabi mutafakkir va shoirlarni o‘zlarining ulug‘ ajdodlari sifatida bilishadi.***

2

**Aks sado**

## Hamkorlikning imkoniyat va istiqbollari

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Vengriya va Sloveniya Respublikasiga rasmiy tashriflari bo‘lib o‘tdi. Mamlakatimiz rahbarining Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban, Sloveniya Respublikasi Prezidenti Natasha Pirs Musarning taklifiga binoan ushbu davlatlarga rasmiy tashriflari o‘zaro munosabatlarning yangi davrini boshlab berdi, desak, yanglishmaymiz. Bular, o‘z navbatida, istiqbolli hamkorlikka intilish ushbu davlatlarda ham juda kuchli ekanini yaqqol namoyon etdi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari bu haqda o‘z munosabatlarini bildirishdi.*

3

## Ikki mamlakat o‘rtasidagi ko‘p tomonlama sheriklikning yangi davri

*O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 21-22-may kunlari Sloveniyaga bo‘lib o‘tgan rasmiy tashrifi yuqori hamkorlik salohiyatiga qaramay yaqin-yaqingacha ushbu imkoniyatdan foydalanilmagan ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishda muhim bosqich bo‘ldi.*

*Oliy darajadagi muzokaralar har ikki tomonning nafaqat siyosiy muloqotni faollashtirish, balki iqtisodiy, sarmoyaviy va gumanitar aloqalarni jadallashtirishga tayyorligini namoyish etdi.*

3





## Jahon savdo tashkilotiga a’zolik:

## MILLIY MAQSADLAR YO‘LIDAGI ULUG‘VOR QADAM

### Nuqtai nazar

*Jahon savdo tashkilotiga qachon a’zo bo‘lamiz? Bu boradagi ishlarni jadallashtirishning imkoni bormi,yana nimalar qilish kerak? Keyingi paytda ushbu masalaga tez-tez murojaat qilinyapti. Chunki JSTga a’zolikka erishish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadiga hamohang.*

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 14-may kuni O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish jarayoni va uni jadallashtirish chora-tadbirlari bo‘yicha taqdimot bilan tanishuvi chog‘ida ushbu mavzuga yana bir bor e’tibor qaratildi.

Davlat rahbarining alohida nazorati ostida 2023-yildan boshlab JSTga a’zo bo‘lish borasida qat’iy choralar ko‘rilmoqda. O‘tgan davrda ko‘p va ikki tomonlama muzokaralarda muayyan natijalarga erishildi. Jumladan, ishchi guruhining to‘rtta muhim yig‘ilishi o‘tkazilib, 500 dan ortiq masalalar ko‘tarildi, 30 dan ziyod rasmiy hujjatlar JST Kotibiyatiga taqdim etildi. A’zolikni jadallashtirish maqsadida sohalarda tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, 33 ta mamlakat bilan bozorga kirish bo‘yicha muzokaralar olib borilib, bugungi kunga qadar 24 tasi bilan tahlillar yakunlandi. JST a’zolari bilan muloqotda yangi yondashuv va islohotlar natijalari ijobiy baholanmoqda.

4

Aziz SANJAR:

# Alisher Navoiy nomidagi mukofot men uchun Nobel mukofoti kabi aziz va qadrlidir

1

**Alisher Navoiy nafaqat turk dunyosi, balki jahon adabiyotining eng buyuk shoiridir. Bundan qariyb 600-yil avval yashagan bo‘lsa-da, o‘z asarlari va fikrlari bilan dunyoga mashhur. U turkiy madaniyat va ijtimoiy tafakkurning rivojiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk mutafakkirdir.**

**Alisher Navoiyning betakror ijodiy meros Yer yuzida do‘stlik va tenglikni o‘rnatish, ayniqsa, u o‘zi yashagan davrdagi turk dunyosi birligini mustahkamlashga qaratilgan edi. Uning o‘lmas g‘oyalari 500-yil keyin ham bugungi turkiy dunyoning birligi va mushtarak maqsadlar sari birga harakati uchun xizmat qilmoqda.**

**Atoqli shoirning quyidagi satrlari uning yuksak ma’naviy idealini go‘zal ifodalagan va chuqur global buhronlar girdobida qolgan jahon ahli uchun bir chaqiriq kabi jaranglaydi:**

***Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig‘,***
***Yor o‘ling bir-biring‘izgakim, erur yorlig‘ ish.***

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ta’sis etilgan Alisher Navoiy nomidagi mukofotga munosib deb topilganimdan juda mamnunman.**

**Alisher Navoiy nomidagi mukofot men uchun Nobel mukofoti kabi aziz va qadrlidir.**

**Alisher Navoiy kabi dahoni tarbiyalab yetishtirgan qardosh o‘zbek xalqiga har doim ta’zimdaman.**

**O‘zbekistonga, Samarqandga, Samarqand davlat universitetiga har kelganimda O‘zbekistonda, uning oliy ta’lim va fan tizimida ulkan o‘zgarishlar yuz berayotganining guvohi bo‘laman.**

**Buyuk va bunyodkor xalqdan, uning yo‘lboshchisi – Prezident Shavkat Mirziyoyevdan juda minnatdorman.**

**O‘zbekistonning muqaddas nomi yanada yuksak ohanglarda jaranglashi uchun qo‘limdan kelgan barcha ishlarni bajarishga tayyorman”.**

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev va xalqimiz sha’niga bildirilgan bu samimiy tilaklar har birimizga faxr-iftixor bag‘ishlaydi.

Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot va mazkur martabaga sazovor bo‘lgan shaxslar O‘zbekiston uchun, o‘zbekistonliklar uchun g‘oyatda qadrli va azizdir.

Aziz Sanjar va Samarqand davlat universiteti o‘rtasidagi munosabatlarning ham o‘z tarixi bor, albatta.

**2018-yil 14-oktyabr.** Bu sana Samarqand davlat universiteti tarixiga oltin harflar bilan yozilgan. Aynan shu kuni Aziz Sanjarning SamDUga ilk tashrifi bo‘lib o‘tgan. Tashrif doirasida Aziz Sanjarga Samarqand davlat universiteti faxriy professori unvoni berilgan edi.

Aziz Sanjar bu qisqa muloqotdan qoniqmaganini aytib, Samarqand tuprog‘ini, Mirzo Ulug‘bek xokini, Alisher Navoiy izlarini ko‘ziga surtish uchun yana Samarqandga kelishini alohida ta’kidlagan edi.

**2021-yil 21-sentyabr.** Samarqand davlat universiteti kuni munosabati bilan Nobel mukofoti sohibi Aziz Sanjar ikkinchi marotaba universitetimizga tashrif buyurdi. U professor-o‘qituvchilarimiz va talabalarimiz bilan yaqindan muloqot qildi, ma’ruzalar o‘qidi. Xulosa esa shunday bo‘ldi: “Baribir Samarqandning diydoriga to‘ymadim”.

**2023-yil 29-aprel.** Aziz Sanjar Samarqand davlat universiteti Biokimyo institutining ochilish marosimida qatnashish uchun uchinchi marotaba SamDUga tashrif buyurdi. Buyuk olimning bu safari yetti kun davom etgani bilan alohida e’tiborga molik.

Aziz Sanjar Samarqandda kechgan kunlarining har bir daqiqasidan unumli foydalanishga intildi. Biokimyo institutida tashkil qilingan **Nobel mukofoti sohibi Aziz Sanjar nomidagi Zamonaviy tahlil usullari** ilmiy laboratoriyasini shaxsan ochib berdi. Mazkur dargohga uning nomi berilganidan faxrlanganini alohida qayd etdi.

Laboratoriyadagi ilk tajriba ishlarida Samarqand davlat universiteti talabalari, professor-o‘qituvchilari hamda Aziz Sanjarning o‘zi ishtirok etdi. U talabalar uchun maxsus ma’ruzalar tashkil qildi, professor-o‘qituvchilar bilan ilmiy hamkorlik masalalari bo‘yicha suhbatlar olib bordi. Samarqand davlat universitetida ta’sis etilgan **Aziz Sanjar nomidagi stipendiya**ni uning ilk egasi – SamDU talabasi Komila Bebitovaga topshirdi.

Aziz Sanjarning Samarqand davlat universitetiga uyushtirgan ushbu safarida unga turkiyalik taniqli jurnalist Muhammad Ro‘ziboy hamrohlik qildi. U bu safar taassurotlari haqida **“Aziz Sanjar bilan 7 kun”** nomli kitob yozib, turk va o‘zbek tillarida nashr ettirdi.

**2024-yil 15-avgust.** Aziz Sanjar Samarqand davlat universiteti muassisligida chop qilinayotgan **“Samarqandim”** jurnalining nishona soniga yuborgan tabrigida shunday degan edi: *“Men Samarqandni, Samarqand davlat universitetini yaxshi ko‘rib qoldim, sog‘inadigan bo‘ldim. Turkiyada tug‘ilganman, Amerikada yashayapman. Lekin Samarqand meni butunlay maftun etdi. Qisqa vaqt ichida Samarqand davlat universitetida uch marotaba bo‘ldim. Ishonch bilan aytamanki, insoniyat Samarqanddagi sokinlikni,*



*sir-sinoatni boshqa biror manzildan topa olmaydi. Samarqandga har gal kelganimda Siyob bozoriga albatta boraman. Bilasizmi, u yerga meni nima chorlaydi? Yer yuzining biror joyida yo‘q Samarqand nonining hidi, samarqandlik sodda va samimiy insonlar qalbi. Men Samarqandga safarimni Ulug‘bek qabri ziyoratidan boshlayman. Men uchun Samarqand – bu Mirzo Ulug‘bekdir”.*

**2025-yil 8-aprel.** “Aziz Sanjar bilan 7 kun. Buyuk olim bilan ota yurtga sayohat” nomli kitob o‘zbekcha nashrining taqdimot marosimi bo‘lib o‘tdi. Mazkur kitob bayramida turkiyalik mashhur jurnalist, asar muallifi Muhammad Ro‘ziboy ham ishtirok etdi.

Qadrdon do‘stim, hamkorim, hamfikrim Aziz Sanjar janoblarini turkiy xalqlarning buyuk shoiri, mutafakkiri, davlat arbobi, faxr-iftixori Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot bilan samimiy muborakbod etaman. Tez kunlarda yana Samarqand davlat universitetida diydor ko‘rishishdan umidvorman.

**Rustam XOLMURODOV,**
**Samarqand davlat universiteti rektori,**
**O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi,**
**Oliy Majlis Senati a’zosi.**

Qo‘mitalar hafta ichida

## AHOLI ARZON VA SIFATLI DORI VOSITALARI BILAN TA’MINLANADI

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mehnat, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi tomonidan “Adolat” SDP fraksiyasi bilan hamkorlikda “Aholini arzon va sifatli dori vositalari bilan ta’minlash – davr talabi” mavzuida davra suhbati o‘tkazildi.*



Mamlakatimizda aholini dori vositalari, tibbiyot buyumlari va tibbiy texnika bilan ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Aholi va sog‘liqni saqlash muassasalarini arzon farmatsevtika mahsulotlari bilan ta’minlashni yaxshilash, farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirishga qaratilgan 50 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni yangi tahrirda, 2020 – 2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasining farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Konsepsiya doirasida har yili 300 turdagi yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish joriy etildi. Natijada o‘tgan yillarda stomatologiya, onkologiya, toksikologiya hamda pulmonologiya guruhlariga kiruvchi dori vositalarini mahalliylashtirish darajasi oshdi.

Tadbirda qatnashgan mutaxassislar va ekspertlar tomonidan sohada erishilayotgan yutuqlar alohida urg‘ulanib, mavjud muammolar, ularni bartaraf etish masalalari atroflicha muhokama qilindi. Dori vositalari bozorida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, narxlarni tartibga solish, milliy ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirish, davlat xaridlarida ochiqlik va raqobat muhitini shakllantirish muhim ekanligi ta’kidlandi.

Deputatlar aholining dori vositalariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, kundalik shart-sharoitdan kelib chiqqan holda qonun va qonunosti hujjatlarining ijrosini muntazam o‘rganib borish, amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolarni, o‘z yechimini kutayotgan masalalarni bartaraf etish, sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha bir qator takliflar berishdi.

Davra suhbati yakunida farmatsevtika sohasini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan qonun va normativ-huquqiy hujjatlarni hayotga tatbiq etish, ularning ijrosini samarali tashkillashtirish yuzasidan aniq rejalar ishlab chiqildi.

## TALABALARNI JISMONIY TARBIYAGA JALB QILISH ISHLARI YANADA KENGAYADI

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O‘zbekiston “Milliy tiklanish” DP fraksiyasi hamda Fan, ta’lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo‘mitasi tomonidan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “Oliy ta’lim muassasalarida sport yo‘nalishlari bo‘yicha ajratilgan kvotalar, pedagogik tarkib va ta’lim sifatini oshirish borasidagi ishlar to‘g‘risida”gi axboroti eshitildi.*

Davlatimiz rahbari raisligida shu yil 13-fevral kuni olimpiya va paralimpiya harakati, ixtisoslashtirilgan va ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish hamda aholi jismoniy faolligini oshirish chora-tadbirlari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ushbu yo‘nalishdagi ishlar tahlil qilinib, soha istiqboliga qaratilgan muhim vazifalar belgilab berilgan edi.

Bugungi kunda vazirlik tomonidan ommaviy sport musobaqalarini yanada kengaytirish, ularni yuqori saviyada o‘tkazish uchun sport inshootlarini jihozlar bilan ta’minlash bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Axborotda keltirilishicha, ayni paytda 201 ta oliy ta’lim muassasasida 138 ta jismoniy tarbiya va sport kafedrasi, 114 ta sport klubi, 74 ta sport bo‘limi, 835 ta ochiq maydon va sport inshootlari, 995 ta yopiq maydon va sport inshootlari bor.

Jismoniy tarbiya va sport kafedralarida 1470 nafar professor-o‘qituvchi, sport klublarida 389 nafar trener, mutaxassis faoliyat yuritib kelmoqda. Qolaversa, oliy ta’lim muassasalarida kafedra va sport klublaridan tashqari yo‘nalishni muvofiqlashtiruvchi bo‘limlarda 147 nafar trener-mutaxassis ishlamoqda.

Hozirgi kunda talabalar o‘rtasida bir qator sport musobaqalari muntazam o‘tkazib kelinmoqda.

Deputatlar vazirlik tomonidan amalga oshirilgan ishlarni e’tirof etib, talabalar sportini rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha ayrim muammolar borligini qayd etdilar. Xususan, ayrim oliy ta’lim muassasalari talabalar soniga mos ravishda sport maydonlari va jihozlar bilan ta’minlanmagani, o‘tkazilayotgan musobaqalarda sanoqli sportchi talabalarni qayta jalb etish holatlari uchrayotgani, boshqa talabalarni esa qamrab olish choralari ko‘rilmagani, ularning tizimli hisobi raqamlashtirilmagani, respublika musobaqalarida oliy ta’lim muassasalarining 72 foizi qatnashayotgani tanqid ostiga olindi.

Qizg‘in muhokamalar davomida talabalar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, yoshlarni sportga keng jalb etish bo‘yicha bir qator takliflar berildi. Jumladan, respublikadagi har bir oliy ta’lim muassasalarida ustuvor, istiqbolli va rivojlanayotgan olimpiya sport turlari bo‘yicha kamida 3 tadan sport bo‘limidan (turidan) iborat sport klublari tashkil qilish lozimligi ta’kidlandi.

Oliy ta’lim muassasalarini sport federatsiyalari, sport va umumta’lim maktablari, texnikumlar zallariga, ularga esa 26 ta olimpiya sport turlari bo‘yicha federatsiyalarni biriktirib, hamkorlikni mustahkamlash zarurligi urg‘ulandi.

Shu bilan birga, talabalar uchun barcha sport klublarini birlashtiradigan raqamli platforma va mobil ilovalar yaratish, oliy ta’limdagi barcha yo‘nalishga birinchi bosqichda Jismoniy tarbiya fanini fakultativ kurs sifatida kiritish hamda bo‘limlar tashkil etish kerakligi aytildi.

Deputatlar oliy ta’lim muassasalarida sport yo‘nalishlari bo‘yicha har yili ajratiladigan kvotalardan samarali foydalanish, pedagogik tarkib va ta’lim sifatini oshirishni zamon talablari asosida takomillashtirish bo‘yicha bir qator taklif va tavsiyalar berdilar.

Xalq vakillarining fikricha, ommaviy sportni rivojlantirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish masalasini qonun darajasida mustahkamlab qo‘yish zarur. Bunda O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunini tubdan qayta ko‘rib chiqib, bugungi zamon talablariga moslashtirish kerakligi qayt etildi.

Yakunda kun tartibidagi masala yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

**“Xalq so‘zi”.**

## QONUN IJROSI – DAVR TALABI

*Kecha Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi majlisi bo‘lib o‘tdi.*

*Unda dastlab sifatsiz yo‘l qurishning oldini olish borasida parlament nazoratini kuchaytirish maqsadida Xorazm viloyatida amalga oshirilayotgan ishlar hamda viloyatda o‘tkazilgan o‘rganishlar natijasi bo‘yicha Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi rahbarining axboroti eshitildi.*

Senat qo‘mitasida



Ta’kidlanganidek, qo‘mita tomonidan tuzilgan ishchi guruh a’zolari joriy yil 13 – 15-fevral kunlari Xorazm viloyatida mahalliy yo‘llarning ahvolini o‘rgandi.

Viloyatda 2022 – 2024-yillarda 3 062 km. yo‘l va 64 ta ko‘prik qurilgani, rekonstruksiya qilingani va ta’mirlangani qayd etildi.

Bundan tashqari, “Tashabbusli byudjet” doirasida 2022 – 2024-yillarda 140 ta loyiha uchun 131,3 mlrd. so‘m ajratilgan hamda 193,2 km. yo‘llar ta’mirlangan.

Biroq aholi bilan o‘tkazilgan muloqotlar, joylardagi o‘rganishlar, tarmoqqa oid qonun hujjatlari va huquqni qo‘llash amaliyotining tahlili avtomobil yo‘llarini qurish hamda ta’mirlashda viloyatda tizimli muammo hamda kamchiliklar mavjudligini ko‘rsatdi.

Jumladan, bugungi kunda viloyatdagi 9 025 km. umumiy foydalanishdagi hamda ichki xo‘jaliklararo yo‘llarning 3 017 km. qismi yoki 33,3 foizi ta’mirtalab holatga kelib qolgan.

Viloyatdagi 1 612 ta ko‘prikning 648 tasi yoki 40 foizi ta’mirtalab bo‘lsa, 213 tasi yoki 13 foizi yaroqsiz va avariya holatida.

Moliyalashtirishning yetarli darajada emasligi va belgilangan me’yordan ortiq yuk tashilayotgani asosiy muammolardan biri sifatida ko‘rsatildi.

Masalan, 2024-yilda talab etiladigan mablag‘ning faqat 26 foizi ajratilgan, yuk mashinalarining qariyb 30 foizi me’yordan ortiq yuk bilan harakatlangan.

Majlisda ushbu muammolarni bartaraf etish uchun “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqish, transport vositalari uchun maxsus talablar belgilash, qurilish hujjatlarini yangilash kabi choralar nazarda tutilgan qaror qabul qilindi.

Shuningdek, yig‘ilishda “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun dastlabki tarzda ko‘rib chiqildi.

Mazkur qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi hamda “Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunlariga tegishli o‘zgartishlar kiritilmoqda.

Jumladan, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga energiya resurslarini kam miqdorda talon-toroj qilganlik va ichki ishlar organlari yoki Milliy gvardiya xodimining qonuniy talabini bajarmaganlik uchun jazo choralari kuchaytirilishi belgilanmoqda.

“Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunga esa sotuvchining shartnomaviy majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishini ta’minlovchi me’yor kiritilmoqda. Unga ko‘ra tovar o‘z vaqtida yetkazib berilmagan taqdirda, kechiktirilgan har bir vaqt birligi uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to‘lash lozimligi belgilanadi. Penya umumiy summasi tovar bahosidan oshmasligi shart.

Shuningdek, “Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunda yodlangan tuzdan majburiy foydalanish, uni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish, shuningdek, Sog‘liqni saqlash vazirligining bu sohadagi vakolatlariga aniqlik kiritish nazarda tutilmoqda.

Qonunning qabul qilinishi qonun ustuvorligini ta’minlash, iste’molchilar huquqlarini himoya etish hamda aholi sog‘lig‘ini mustahkamlashga xizmat qilishi qayd etildi.

Muhokamadan o‘tkazilgan masalalar yuzasidan qo‘mitaning tegishli qarorlari qabul qilindi.

**“Xalq so‘zi”.**

Sessiya

## Mahalliy Kengashlar o‘zaro tajriba almashmoqda

*Joriy yilning 16 — 19 may kunlari xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashi deputatlari va kotibiyat mudirlaridan iborat delegatsiya o‘zaro tajriba almashish maqsadida Toshkent viloyatida bo‘ldi.*

Undan ko‘zlangan maqsad viloyatlararo hamkorlikni yanada mustahkamlash, mahalliy Kengashlar faoliyatini takomillashtirish va doimiy komissiyalar ish samaradorligini oshirish, shuningdek, o‘zaro tajriba almashishdir.

Delegatsiya a’zolari Olmaliq shahar Kengashi, “mahalla yettiligi”, Yoshlar parlamenti vakillari maktabi faoliyati bilan tanishdilar va deputatlarning saylovchilar bilan ochiq muloqoti bo‘yicha tajriba almashishdi.

Shuningdek, Andijon viloyati Kengashi deputatlari va Kengash kotibiyati vakillari Olmaliq shahridagi bir qator muassasalarda, shu jumladan, “Olmaliq KMK” AJga qarashli Qalmoqqir koni, mis boyitish fabrikasi, “Metallurg” madaniyat saroyi, Muhandislar maktabida bo‘ldi va ularning faoliyati bilan yaqindan tanishdilar.

Bundan tashqari, mahalliy Kengashlar deputatlari viloyat hokimi Z. Mirzaev bilan birgalikda Deputatlar bog‘i hamda Nurafshon shahridagi qurilish ob‘ektlari bilan tanishib, yakunda xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining sayyor sessiyasida ishtirok etdilar.

Sessiyada Vazirlar Mahkamasining Oqqo‘rg‘on tumanini 2024-2025 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir qarorining joriy yil birinchi chorakdagi ijrosi va kun tartibidagi masala yuzasidan mas‘ullarning hisoboti eshitilib, tanqidiy-tahliliy ruhda muhokama qilindi.

**«Xalq so‘zi».**

## Mehnat migratsiyasi va investitsiya sohalari atroflicha o‘rganildi

*Senatning Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasi huzurida tuzilgan ishchi guruh Samarqand viloyatida mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, shuningdek, investitsiya loyihalarining tatbiq etilishi holati hamda mavjud muammolarni bartaraf qilish borasida ko‘rilayotgan choralar samaradorligini o‘rgandi.*

### Senatorlar – hududlarda

Xususan, hududda mehnat migratsiyasi jarayonlarini boshqarish tizimining samaradorligini ko‘tarish, chet elda mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo‘lgan fuqarolarga qulay shart-sharoitlar yaratish, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilish (ularning bandligini ta’minlash, kasbiy malakasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini rag‘batlantirish) borasidagi ishlar holati tahlil etildi.

Ma’lumotlarga ko‘ra hududda oxirgi ikki yilda tashkillashtirilgan holda 33 mingdan ortiq kishilar rivojlangan davlatlarga ishlash uchun yuborilgan.

Ayrim fuqarolar mustaqil ravishda xorijiy davlatlarga borib kelmoqda. Ularning mehnat va yashash sharoitlari, kasbi, daromadi turli darajada.

Davlatimiz rahbari sohada fuqarolarga qulayliklar yaratish, mehnat migratsiyasidan qaytgan shaxslarning bandligini ta’minlash vazifalarini belgilagan edi. Shu bois kasbiy malakasi yo‘q va til bilmaydigan fuqarolarni kasbga o‘qitish hamda professional ta’lim tashkilotlarida maqsadli tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan.

Jumladan, viloyatda 24,3 ming fuqaro turli kasblar va xorijiy tillarga o‘qitilgan. Shundan chet elda ishlash istagida bo‘lgan 10635 nafar fuqaroning 9638 nafari 24 turdagi kasb va 997 nafari



xorijiy tillarni o‘rganishga jalb qilingan.

Mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarning bandligiga ko‘maklashish maqsadida tomorqada mahsulot yetishtirib, daromad olish uchun moliyaviy ko‘mak berilmoqda hamda boshqa turdagi bandlik xizmatlari ko‘rsatilyapti. Tibbiy muassasalar muhojirlikdan qaytgan shaxslar va ularning oila a’zolarini bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tkazmoqda. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan ota-onasi xorijda mehnat qilayotgan bolalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatilmoqda.

Senatorlar o‘rganishlar davomida ushbu tizimni samarali yo‘lga qo‘yish, fuqarolarga sifatli xizmat ko‘rsatish, bandlikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar berishdi.

Shuningdek, hududda investitsiya loyihalarining tatbiq etilishi hamda mavjud muammolarni bartaraf qilish borasida ko‘rilayotgan choralar samaradorligi ham o‘rganildi.

Xususan, joriy yilda viloyatda davlat dasturi asosida umumiy qiymati 3,9 mlrd. AQSH dollariga teng xorijiy investitsiya ishtirokidagi 108 ta korxonani ishga tushirish belgilangan. Birinchi chorak yakuni bilan viloyatda 330,6 mln. AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiya mablag‘lari o‘zlashtirilib, reja 107 foizga bajarilgan.

Senatorlar Samarqand mamlakat markazida joylashgan, savdo, sanoat, turizm, transport va agrar sohalar yaxshi rivojlangan hududligini inobatga olib mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish zarurligiga e’tibor qaratdilar.

**“Xalq so‘zi”.**

**2026-yil 1-yanvardan Samarqand viloyatining barcha tuman (shahar)larida sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli joriy qilinadi.**

Fikr

# EKOTIZIMLARNI HIMOYALASH – INSONIYAT KELAJAGI HAMDA TARAQQIYOTI KAFOLATI

*Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1992-yilda Biologik xilmaxillik to‘g‘risidagi Konvensiyaning qabul qilinishi va xalqaro hujjat sifatida e’tirof etilishi bejiz emas, albatta.*



Unda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan g‘oyatda muhim vazifalar qamrab olingani bois mazkur Konvensiya dunyoning aksariyat mamlakatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan.

Shu munosabat bilan har yili dunyo hamjamiyati 22-mayni – Xalqaro biologik xilmaxillik kuni sifatida keng nishonlab keladi.

Undan maqsad esa ekologik barqarorlikni ta’minlash, biologik xilmaxillikni qayta tiklash va asrash, ekotizimlarni himoyalash kabi insoniyat kelajagi hamda taraqqiyoti uchun muhim va dolzarb masalalarga jahon jamoatchiligi e’tiborini qaratish, bu borada ijobiy natijalarga erishishdan iborat.

Bioxilmaxillik ancha keng tushuncha bo‘lib, u hayotdagi barcha turlarni va sayyoramizda mavjud tabiiy tizimlarni o‘z ichiga oladi.

Qayd etish joizki, bioxilmaxillikni saqlash, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar tizimini rivojlantirish, ularni boshqarish va butligini ta’minlash hamda samarali faoliyat yuritish xalqaro huquq normalarida dolzarb vazifalar sifatida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi 1995-yildan boshlab Birlashgan Millatlar Tashkilotining Biologik xilmaxillik to‘g‘risidagi Konvensiyasining Tomoni hisoblanadi va o‘ziga biologik xilmaxillikni saqlash hamda undan barqaror foydalanish yuzasidan bir qator, shu jumladan, biologik xilmaxillik ishonchli saqlanishini ta’minlash maqsadida mavjud muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni kengaytirish va yangilarini tashkil etish majburiyatini olgan.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra bugungi kunda O‘zbekiston bioxilmaxilligi 27 mingdan ortiq turlarni o‘z ichiga oladi. Ular orasida umurtqasiz hayvonlarning 14900 turi, umurtqali hayvonlarning esa 715 turi uchraydi. Umurtqalilarning 107 turi sutemizuvchilar, 467 turi qushlar, 61 turi sudralib yuruvchilar, 3 turi amfibiyalar, 77 turi baliqlardir. Shuningdek, 11000 turdagi o‘simliklar, qo‘ziqorinlar, suv o‘tlari bor. Bundan tashqari, yuqori yovvoyi o‘simliklarning 4300 turi bo‘lib, ulardan 8 foizi endemik turlardir.

Bioxilmaxillik mamlakatimizda xalqning iqtisodiy, estetik, sog‘liqni saqlashga oid va madaniy farovonligining muhim manbai hisoblanadi. Ammo butun dunyoda bioxilmaxillik kamayib borayotgani, chunonchi, noyob genlar, turlar va ekologik tizimlar yo‘q bo‘lib ketayotgani bor haqiqat va bu yurtimizga ham tahdid solmoqda.

Darhaqiqat, bioxilmaxillik va ekotizimni saqlab qolish hayot-mamot masalasidir. Ularning yo‘qolishi xarajatlar va xatarlarni oshirishi hamda iqtisodiy ko‘rsatkichlarning pasayishiga olib kelishi mumkin. Biz hozir ushbu ta’sirlarni sezmoqdamiz. Orol fojiasi, tez-tez sodir bo‘layotgan chang bo‘ronlari, iqlim o‘zgarishi kabilar tabiatni asrashni, tabiiy resurslardan mas’uliyatli tarzda foydalanish lozimligini anglatadi.

Mamlakatimizda bioxilmaxillikni saqlab qolish bo‘yicha Milliy strategiya va Harakatlar rejasi tasdiqlangan. Mazkur hujjatga asosan mamlakat umumiy yer maydonining 17 foizini muhofaza etiladigan tabiiy hududlar toifasiga kiritish rejalashtirilgan.

Biologik xilmaxillik to‘g‘risidagi Konvensiya doirasida 2019 – 2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilmaxillikni saqlash strategiyasi ijrosi ta’minlanmoqda. Amalga oshirilgan ishlar natijasida respublikada muhofazadagi tabiiy maydonlar umumiy hajmi 6,4 mln. gektarga yetkazilgan, bu mamlakat hududining 14,08 foiziga teng.

Muhofaza hududlarini tashkil etish va mavjudlarini kengaytirish, ularni saqlash hamda unga ziyon yetkazmasdan foydalanishda keng jamoatchilikning ishtirokini ta’minlash biologik xilmaxillikni saqlab qolishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

E’tirof etish joizki, so‘nggi yillarda Respublikamiz miqyosida, xususan, Orolbo‘yi mintaqasida biologik xilmaxillikni asrashga alohida e’tibor qaratilib, dengizning qurigan tubida qariyb 2 mln. gektar maydonda o‘rmonzorlar barpo qilindi.

Quvonarlisi shuki, bunday yerlarda ekotizim qaytadan tiklanadi, ya’ni ko‘chma qumlardan iborat bo‘lgan, qaqrab yotgan cho‘llar yashil hududlarga aylanadi va hayvonot dunyosi paydo bo‘ladi.

Umuman olganda, endilikda biologik xilmaxillikni asrash borasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan bir qatorda, kelgusida bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar ham muhim.

Avvalo, biologik xilmaxillikni va ekotizimlarni saqlash hamda ulardan oqilona foydalanish manbalarining maqsadli sarflanishiga hamda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydonlarini yanada kengaytirish, o‘rmonlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish usullarini joriy etish hamda respublikamizning barcha hududida yovvoyi hayvon va o‘simlik turlarini ko‘paytirishga ixtisoslashtirilgan pitomniklar, ko‘chatxonalarni barpo qilish ishlarini jadallashtirish zarur.

Bularning amalga oshirilishi va biologik xilmaxillikni asrash orqali aholi uchun qulay ekologik muhit yaratilishiga, ayniqsa, ekoturizmni rivojlantirish va yurtimizga tashrif buyuruvchi sayyohlar oqimining ortishiga erishiladi.

**Anvar TO‘YCHIYEV,**
**Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi raisi.**

# Hamkorlikning imkoniyat va istiqbollari

◀1

**Dilorom FAYZIYEVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari:**

– O‘zbekiston – Vengriya davlat va jamoat rivojlanishining barcha yo‘nalishi bo‘yicha o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish imkonini beruvchi tashabbuslarni ilgari surishda qat’iy intilishni namoyon etmoqda.

Vengriya tomonidan Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikni kengaytirish borasida ko‘rsatilayotgan har tomonlama qo‘llab-quvvatlash ham e’tiborga molik. Bu holat respublikamizning Yevropa mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarini yaxshilashda yangi imkoniyat va istiqbollarni ochmoqda.

Ikki mamlakat yetakchilari zamonaviy tahdid va xatarlarga qarshi samarali kurashni ta’minlash maqsadida xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratyapti.

Prezidentimizning Vengriyaga rasmiy tashrifi ikki tomonlama munosabatlarning yangi davrini boshlab berdi.



Budapesht shahrida bo‘lib o‘tgan muzokaralar yakunida imzolangan Kengaytirilgan strategik sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiya mamlakatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilishi, shubhasiz.

So‘nggi yillarda madaniy-gumanitar yo‘nalishdagi aloqalarimiz ham izchil rivojlanib borayotganini qayd etish kerak. Vengriya bilan fan va ta’lim sohasidagi hamkorlik ham kengaymoqda. Yetakchi universitetlar o‘rtasidagi muvaffaqiyatli hamkorlik mamlakatimiz barqaror taraqqiyotiga hissa qo‘shishga tayyor bo‘lgan bo‘lajak kadrlarning professional shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotir.

Qayd etish joizki, bugungi kunda o‘zbek – venger munosabatlari yangi bosqichga ko‘tarilib, ikki davlat yetakchilari uchrashuvi chog‘ida erishilgan kelishuvlar kengaytirilgan strategik hamkorlikning mustahkam asosini yaratdi.

Davlatimiz rahbarining Vengriya parlamenti spikeri Laslo Kyover bilan uchrashuvi, O‘zbekiston va Vengriya o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashda parlamentlarning alohida ahamiyatga egaligidan dalolat beradi.

Hozirgi kunda parlamentariylar o‘rtasidagi faol hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar ochilgan. O‘z navbatida, kengaytirilgan strategik sheriklik parlamentlararo aloqalarni faollashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu esa deputatlar korpusi tomonidan davlatlararo munosabatlarni rivojlantirishga qonunchilik asosida ko‘mak berishga xizmat qiladi.

Bugun milliy parlamentlarimiz vakillari nafaqat do‘stlik va hamkorlik guruhlari doirasida, balki Parlamentlararo Ittifoq va YEXHT Parlament Assambleyasi kabi ko‘p tomonlama maydonlardagi milliy pozitsiyalar va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash orqali ikki tomonlama aloqalarni olib bormoqda. Mas’ul qo‘mitalar o‘rtasida ishchi hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi, eng avvalo, kengaytirilgan strategik sheriklik bo‘yicha kelishuvlar ijrosini ta’minlashga turtki beradi.

Vengriya parlamentidagi uchrashuvda Prezidentimiz ta’kidlaganidek, qonunchilik tajribasini, xususan, hududlarni rivojlantirish, soliqqa tortish, raqamlashtirish va ijtimoiy himoyani ta’minlash borasidagi venger tajribasini o‘rganish muhim o‘rin tutadi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida ikki tomonlama kelishuvlar doirasida belgilangan vazifalarni amalda bajarish maqsadida ishlab chiqilgan “yo‘l xaritalari” ustidan muntazam monitoring olib borilmoqda.

Kelgusida sheriklikni kengaytirish, shuningdek, uning shartnomaviy-huquqiy asosini mustahkamlashni inobatga olgan holda mazkur tashrif doirasida qabul qilingan davlatlararo hujjatlar doirasida ko‘plab sohalarda hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha parlamentlar tomonidan ishlar davom ettiriladi.

**Viktor PAK,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:**

– So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Vengriya o‘rtasida faol munosabatlar yo‘lga qo‘yilgani ikki davlatning siyosiy, iqtisodiy hayotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, 2023-yili o‘zaro hamkorlikni yanada mustahkamlashga oid muhim kelishuvlarga erishilib, asosiy tashabbuslar amalga oshirilgandi. Budapeshtda O‘zbekiston elchixonasi ochilishi, Vengriyadagi “OTP Bank” bankning mamlakatimiz bank-moliya bozoriga chiqishi, hamkorlikdagi investitsion fond tuzilishi, o‘zbek talabalari uchun stipendiyali dastur ochilishi, energetika va sog‘liqni saqlash sohalaridagi o‘zaro kelishuvlar shular jumlasidan.

Bugungi kunda venger kompaniyalari O‘zbekistondagi turli investitsion loyihalarda ishtirok etyapti, yurtimiz esa Vengriya davlati muhim rol o‘ynaydigan Yevropa bozoriga o‘z mahsulotlari va xizmatlari eksportini rivojlantirishga intilmoqda.

Shuningdek, “Qanot Sharq” aviakompaniyasining Toshkent va Vengriya o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bevosita aviaqatnovlarining yo‘lga qo‘yilishi ikki tomonlama munosabatlarning mustahkamlanishiga xizmat qilib, o‘zaro savdo-sotiq, madaniy almashinuv va do‘stona aloqalarning yangi bosqichga ko‘tarilishiga zamin yaratdi.

Havo yo‘llaridagi bu imkoniyat tadbirkorlar, sport, san’at sohalari vakillari uchun ishbilarmonlik uchrashuvlari, konferensiyalar, ko‘rgazmalar va boshqa bir qator xalqaro tadbirlarda ishtirok etish uchun asos yaratdi.

Bugungi kunda O‘zbekiston va Vengriya o‘rtasidagi munosabatlar tobora mustahkamlanib, turli sohadagi o‘zaro hamkorlik kengaygan holda yangidan-yangi imkoniyatlar yo‘lga qo‘yilmoqda.



Prezident Shavkat Mirziyoyevning Budapeshtga amalga oshirgan rasmiy tashrifi Vengriyaning yirik kompaniya va banklari rahbarlari bilan uchrashuvdan boshlangani buning yorqin dalilidir.

Tashrif doirasida transport va yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilish, logistika markazlari va kommunal tarmoqlarni barpo etish, qurilish materiallari, tayyor to‘qimachilik, kimyo, farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish kabi yo‘nalishlarda yangi loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Hozirgi vaqtda parlamentlar, hukumatlar, idora va hududlar darajasida samarali aloqalar yo‘lga qo‘yilgan. BMT, Turkiy davlatlar tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida yaqin hamkorlik qilinmoqda. Vengriyaning O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalari jadal o‘sib boryapti. Madaniy-gumanitar sohadagi amaliy hamkorlikni kengaytirishga alohida e’tibor qaratilyapti. Vengriya davlat opera teatri sahnasida “Lazgi” baletini sahnalashtirish va Budapeshtdagi Etnografiya muzeyida o‘zbek madaniyati ko‘rgazmasini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rilmoqda.

Kelgusi yilni “O‘zbekiston va Vengriya madaniyati yili” deb e’lon qilish taklifi bildirilgani ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlar yanada mustahkamlanib borayotganining yorqin namunasidir.

**Adhambek ISMOILOV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:**



– So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Sloveniya o‘rtasida siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy va madaniy sheriklik izchil rivojlanmoqda. Parlamentlararo aloqalar, xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlik mustahkamlanib, o‘zaro tovar ayirboshlash o‘sayotir. Jumladan, keyingi yillarda tovar ayirboshlash 3 barobar ko‘paydi, madaniyat va turizm sohalaridagi almashinuvlar kengaymoqda. O‘zbekistonda Sloveniya fuqarolari uchun vizasiz rejim joriy etilgan.

Lyublyana shahridagi Prezident saroyida davlatimiz rahbari hamda Sloveniya Respublikasi Prezidentining tor doiradagi va rasmiy delegatsiyalar ishtirokida bo‘lib o‘tgan muzokaralarda amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Qayd etish kerakki, bugungi kunda ikki davlat o‘rtasida siyosiy muloqot, turli darajadagi aloqalar va ishbilarmonlik uchrashuvlari faollashgan. Buni amalga oshirilayotgan islohotlar natijasidan ham bilish mumkin.

Muzokaralar davomida tovar ayirboshlashni ko‘paytirish va uning hajmini oshirish masalalariga, misol uchun, O‘zbekistondan to‘qimachilik, meva-sabzavotlar, mineral o‘g‘itlar, mis mahsulotlari va boshqa sanoat tovarlari, Sloveniyadan esa dori-darmon, ilg‘or texnologiya va uskunalar yetkazib berishga alohida e’tibor qaratildi.

Bundan tashqari, bir qator muhim kelishuvlarga erishildi. Albatta, imzolangan hujjatlar sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, farmatsevtika mahsulotlari, shu jumladan, asal va shifobaxsh giyohlarga asoslangan dori ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, energetika obyektlarini qurish va modernizatsiya qilish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat – turizmni rivojlantirish, ta’lim sohasida qo‘shma dasturlarni yo‘lga qo‘yish masalalariga ham alohida e’tibor qaratildi. Bu bejiz emas. Chunki ikki mamlakat ushbu yo‘nalishda muayyan tajribalarga ega. Bundan anglashiladiki, kelgusida bu borada ham samarali hamkorlik o‘rnatiladi.

**“Xalq so‘zi”.**

**Fakt va raqamlar**

**FAOL IQTISODIY ALOQALAR**

*Sloveniya O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan integratsiyasi yo‘lida muhim hamkor, O‘zbekiston esa Sloveniya uchun Markaziy Osiyodagi ishonchli iqtisodiy sheriklardan biri bo‘lib qolmoqda.*

*O‘zbekiston va Sloveniya tashqi savdo aylanmasi 2024-yilda* ***173 mln.*** *AQSH dollarini tashkil etib, oldingi yildagiga nisbatan* ***47 foizga*** *ortgan. Birgina 2025-yilning yanvar – aprel oylarida ushbu ko‘rsatkich* ***137 mln.*** *dollarga yetib, o‘tgan yilning shu davridagiga solishtirganda* ***41 foiz*** *oshgan. O‘zbekistonning Sloveniya bozoriga eksporti* ***50 mln.*** *AQSH dollariga yaqinlashib, oldingi yildagiga qaraganda 16 barobar o‘sgan. Bu raqamlar ikki mamlakat o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning faollashayotganini va yangi imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi.*

*Manba: Bojxona qo‘mitasining Ilmiy markazi.*

# Ikki mamlakat o‘rtasidagi ko‘p tomonlama sheriklikning yangi davri

◀1

Imzolangan hujjatlar va erishilgan kelishuvlar Toshkent va Lyublyana uzoq muddatli loyiha va tashabbuslarni amalga oshirishga qaratilgan munosabatlarga yangi sifat bag‘ishlash istagidan dalolat beradi.

Sloveniya ommaviy axborot vositalari davlatimiz rahbarining O‘zbekiston – Sloveniya uchrashuvi arafasida va sammiti doirasidagi tashrifini keng yoritdi.

Jumladan, tashrif arafasida ushbu mamlakatning yetakchi “Slovenia Times” gazetasida hamkorlikni yanada rivojlantirishning strategik istiqbollarini belgilab beruvchi tahliliy maqola e’lon qilindi.

Unda O‘zbekiston ayni paytda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida demokratik, siyosiy va iqtisodiy islohotlarning tarixiy bosqichini boshidan kechirayotgani alohida ta’kidlangan. Qayd etilishicha, O‘zbekiston o‘zini yetakchi mintaqaviy davlat hamda o‘zaro manfaatlar va hurmatga e’tibor qaratgan holda global miqyosda hamkorlik qiluvchi konstruktiv, ishonchli xalqaro sherik sifatida namoyon qildi.

“Sloveniya va O‘zbekiston strategik ko‘p qirrali hamkorlikning yangi davriga kirishga tayyor, – deyiladi maqolada. – Tez sur’atlar bilan o‘sib borayotgan tovar ayirboshlash, sarmoyaviy hamkorlikni kengaytirish, faol siyosiy muloqot va har ikki tomonning qiziqishi ortib borayotgan bir sharoitda uzoq muddatli hamkorlik uchun mustahkam poydevor qo‘yilmoqda”.

Mazkur tashrif bo‘yicha ekspert baholari Sloveniyaning Markaziy Osiyoga qiziqishi ortib borayotganini, shuningdek, O‘zbekistonning Yevropadagi sheriklik munosabatlarini diversifikatsiya qilishga strategik yondashuvini tasdiqlamoqda. Tahlilchilar ta’kidiga ko‘ra mazkur tashrif ikki davlat o‘rtasidagi yanada chuqurroq va muvozanatli hamkorlikning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lishi mumkin.

**Lyu SYUI,**
**Jenmin universiteti huzuridagi energetika xavfsizligini o‘rganish markazi direktori (Xitoy):**



– Ushbu tashrif tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakatingizning Yevropa bilan aloqalarni mustahkamlashda yangi bosqich bo‘ldi. Tashrif, avvalo, O‘zbekiston – Sloveniya diplomatik munosabatlari o‘rnatilganining 30 yilligi nishonlanadigan yilda bo‘lib o‘tgani bilan ham ahamiyatlidir.

Bugun biz O‘zbekistonning Yevropa davlatlari, Yevropa Ittifoqiga a’zo mamlakatlar bilan aloqalari faol rivojlanayotganini ko‘rib turibmiz. Yaqinda Samarqandda “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” yetakchilarining birinchi sammiti bo‘lib o‘tdi.

Shu bois Yevropa Ittifoqi a’zosi bo‘lgan va Markaziy Yevropa hamda Shimoli-G‘arbiy Bolqon mamlakatlari vakili bo‘lgan Lyublyana bilan hamkorlikni kuchaytirish rasmiy Toshkentning tashqi siyosiy manfaatlariga to‘liq javob beradi.

Bugungi kunda zamonaviy xalqaro munosabatlarning oldindan aytib bo‘lmaydigan va savdo raqobatining kuchayishi sharoitida mamlakatlar o‘z mahsulotlari uchun yangi bozorlarni qidirmoqda.

Shu nuqtayi nazardan O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oqilona rahnamoligida Markaziy Osiyoning lokomotiviga aylandi, dunyoning barcha mintaqalari, xususan, Yevropa va Sloveniya bilan mustahkam savdo hamda transport aloqalarini o‘rnatish istagini namoyon etdi.

Albatta, tashrif nafaqat savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, balki barqaror va o‘zaro manfaatli sheriklikning asosiy elementi sanalgan madaniy-gumanitar almashinuvlarni kengaytirish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ladi.

Yevropa investitsiyalari va texnologiyalari, jumladan, Sloveniya ham O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, xalq farovonligini oshirish va mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Xitoylik ekspertlar bunday chora-tadbirlar nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishiga ishonch bildirmoqda.

**Shabir Ahmad XAN,**
**Peshovar universiteti qoshidagi Hududiy tadqiqotlar markazi direktori, professor (Pokiston):**



– O‘zbekiston va Sloveniya yetakchilarining Lyublyana shahrida o‘tkazilgan uchrashuvi nafaqat ikki mamlakat munosabatlari, balki keng Yevroosiyo makonidagi geoiqtisodiy jarayonlar jihatidan ham muhim voqelik.

Xolis ekspert sifatida oliy darajada 20 yillik tanaffusdan so‘ng o‘tkazilgan ushbu samarali muzokaralarni O‘zbekiston olib borayotgan muvozanatli va pragmatik tashqi siyosatining samarali natijasi, deya baholayman.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Sloveniya va umuman, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan munosabatlarni yanada mustahkamlash borasidagi siyosati, zamonaviy texnologiyalar, farmatsevtika, sanoat kooperatsiyasi va ta’lim sohalarida aniq yo‘nalish va loyihalar asosida o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tashabbuslari alohida e’tiborga molik.

Bugungi O‘zbekistonni mintaqalararo integratsiyani faol ilgari surayotgan drayver deyish mumkin. Mamlakatning Sloveniyadagi “Koper” porti orqali Yevropa bozoriga chiqish tashabbusi Markaziy Osiyoning Yevropa Ittifoqi bilan transport, savdo va infratuzilma nuqtayi nazaridan integratsiyasini yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Mehnat migratsiyasi sohasida tashkil etilayotgan tizimli hamkorlik ham mamlakatning demografik ustunliklarni samarali ishga solish, ishchi kuchini tayyorlash mezonlarini xalqaro mehnat bozori standartlariga moslashtirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga imkon yaratadi. Pokistonda ham mazkur yo‘nalishdagi amaliyot va ilg‘or tajribani o‘rganishga katta qiziqish mavjud.

Ta’lim va ilm-fan sohasidagi hamkorlik, yoshlar forumlari va qo‘shma ta’lim dasturlari ikki mamlakatning “intellektual diplomatiya”ni rivojlantirishga bo‘lgan o‘zaro intilishidan darak beradi. Bu orqali ikki mamlakat o‘rtasidagi uzoq muddatga mo‘ljallangan aloqalar uchun inson kapitali vositasida mustahkam poydevor yaratiladi.

O‘zbekiston va Sloveniya hamkorligi ikki mamlakatning o‘zaro manfaatlari, mintaqaviy barqarorlik va xalqaro sheriklik sari intilishi natijasi hisoblanadi. Bu munosabatlar kelgusida Yevropa va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni yanada mustahkamlaydi, barqaror, samarali hamda maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik jadal rivojlanishiga olib keladi.

**Filipp VIJERS,**
**niderlandiyalik tashqi siyosat bo‘yicha ekspert:**

– Tashrif O‘zbekiston va Sloveniya o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar rivojida muhim bosqich bo‘ldi. U ikki davlatning iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, yangi ishbilarmonlik sherikligini rivojlantirish, shuningdek, O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi bozori bilan o‘zaro hamkorligini yanada chuqurlashtirish istagini alohida ta’kidladi.



Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashrifidan ko‘zlangan asosiy maqsad sanoat, farmatsevtika, elektrotexnika, “yashil” energetika, qishloq xo‘jaligi kabi muhim tarmoqlarda qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratgan holda o‘zaro manfaatli savdo-iqtisodiy aloqalarni faollashtirishdan iborat.

Sloveniya Yevropa Ittifoqiga a’zo davlat, shu bois O‘zbekiston uchun kengroq Yevropa bozoriga chiqish yo‘lidagi strategik tramplin sifatida ko‘riladi. Tashrif O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi tovar ayirboshlash barqaror o‘sib borayotgan bir sharoitda amalga oshirilmoqda. 2024-yilda O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga eksporti 1,7 milliard dollarga yetdi.

O‘zbekiston va Sloveniya o‘z oldiga to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, farmatsevtika, sanoat uskunalari va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar kabi sohalardagi savdoni diversifikatsiya qilish orqali o‘zaro tovar ayirboshlash hajmini 500 million AQSH dollariga yetkazish bo‘yicha ulkan maqsadni qo‘ygan.

O‘zbekiston Prezidentining Sloveniyaga tashrifi nafaqat O‘zbekiston – Sloveniya munosabatlarini mustahkamlash, balki O‘zbekistonning butun Yevropa Ittifoqi bilan hamkorligini kengaytirishga qaratilgan sheriklikning yangi davri katalizatori sifatida ko‘rilmoqda.

Ishonchim komilki, tashrif natijalari yangi sarmoyalarni jalb etish, eksport imkoniyatlarini yaratish, shuningdek, innovatsiyalar va bilim almashishni rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Bularning barchasi har ikki davlatga ham manfaat keltiradi hamda O‘zbekiston iqtisodiyotining yanada yuksalishi va diversifikatsiyasiga xizmat qiladi.

**“Dunyo” AA.**

**“O‘zekspomarkaz” pavilyonlarida Xalqaro Chjeszyan ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tmoqda.**



# Jahon savdo tashkilotiga a’zolik: MILLIY MAQSADLAR YO‘LIDAGI ULUG‘VOR QADAM

1

Bu, o‘z navbatida, O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lish jarayonida ochiqlik, shaffoflik va adolatli savdoga bo‘lgan qat’iy intilishini tasdiqlaydi. Shu ma’noda, milliy qonunchilikni tashkilot talablariga uyg‘unlashtirish doirasida keng ko‘lamli huquqiy va institutsional islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 13 ta qonun, Prezidentning 10 ta Farmon va qarori, Vazirlar Mahkamasining 19 ta qarori va 10 ta idoralararo normativ-huquqiy hujjat imzolandi. Jumladan, bojxona tartibotlari, eksport-import qoidalari hamda intellektual mulk sohasidagi mexanizmlar bosqichma-bosqich JST standartlariga moslashtirildi, davlat ulushi mavjud bo‘lgan 6 ta korxonada eksklyuziv huquqlar bekor qilindi.

Yig‘ilishda davlatimiz rahbari tomonidan JSTga a’zo bo‘lish jarayonini jadallashtirish hamda uni sifatli va tizimli tashkil etish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi. Unga ko‘ra joriy yilda qolgan 9 ta mamlakat bilan ikki tomonlama muzokaralarni yakunlash, ishchi guruhining 2 ta yig‘ilishini o‘tkazish hamda uning hisobot loyihasini yakunlash orqali O‘zbekistonning JST doirasidagi majburiyatlarini to‘liq shakllantirish vazifalari aniq belgilab berildi. Shuningdek, qonunchilikni tashkilot talablariga moslashtirish doirasida 15 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish jarayonini jadallashtirish zarur.

Jumladan, “Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida”, “Muhofaza choralari, antidemping va kompensatsiya bojlari to‘g‘risida” yangi tahrirdagi qonunlarni qabul qilish tezlashtirish hamda bu borada Oliy Majlis Qonunchilik palatasi bilan yaqindan va samarali hamkorlikni ta’minlash Prezident tomonidan muhim vazifa sifatida belgilab berildi. Texnik jihatdan tartibga solish, sanitariya, fitosanitariya va veterinariya sohalarini isloh etish, ushbu yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatini oshirish ham ustuvor vazifalardan.

### Eksport va import geografiyasi kengayadi

Xalqaro savdoni liberallashtirish, savdo va siyosiy munosabatlarni tartibga solish bilan shug‘ullanadigan JSTga a’zolik O‘zbekiston uchun bir qator ijobiy natijalarni beradi. Birinchidan, JSTga a’zo 160 dan ortiq davlatlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirish, eksport va import geografiyasini kengaytirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun yangi bozorlar ochib, raqobatbardoshlikni oshirishda qulayliklar yaratadi.

Ikkinchidan, a’zolik investitsiya muhitini yaxshilash garovi hamdir. JST talablariga muvofiq iqtisodiy va huquqiy islohotlarning amalga oshirilishi xorijiy investorlar uchun qulay sharoit yaratadi. Investitsiyalarning jalb etilishi esa ishlab chiqarishning modernizatsiyasi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi va iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, nufuzli tuzilmaga a’zolik iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga ko‘maklashadi. JSTga a’zolik mamlakat iqtisodiy siyosatining shaffofligi va xalqaro standartlarga muvofiqligini ta’minlaydi. Bu esa iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlab, jahon iqtisodiy inqirozining salbiy ta’sirini kamaytiradi.

To‘rtinchidan, raqobat muhitini shakllantirishga, monopoliyaga barham berishga, korrupsiya va “yashirin iqtisodiyot”ga qarshi kurashda katta samara beradi. Binobarin, JST qoidalariga binoan, ichki bozorni monopoliyadan xalos etish va raqobat muhitini rivojlantirishga qaratilgan choralar ko‘riladi. Bu esa iste’molchilar uchun sifatli mahsulot va xizmatlarning tanlovini kengaytirib, narxlarning asossiz o‘sishiga yo‘l qo‘ymaydi.

*“Agar O‘zbekiston JSTga oldinroq a’zo bo‘lganida edi, hozir aholining turmush tarzi mutlaqo o‘zgacha bo‘lar edi. O‘zbekiston tashkilotga qo‘shilgach, bizning bozorlarimizga arzon va sifatli mahsulotlar kirib kela boshlaydi. Xalqimizda tanlov imkoniyatlari kengayadi.”*

Biroq JSTga a’zo bo‘lish jarayoni oson kechmaydi. Uning o‘ziga yarasha talablari bor. Ya’ni qonunchilikni JST talablariga muvofiqlashtirishda adashmasligimiz kerak.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, bu yo‘lda qonunchilikka tegishli o‘zgartirishlar kiritildi. Bu murakkab va vaqt talab etadigan jarayon, albatta. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish navbatdagi talablardan biridir. Jahon bozorida raqobatga dosh berish uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularning sifat standartlarini oshirish va eksport salohiyatini mustahkamlash lozim. JSTga a’zolikning afzalliklari va muammolari haqida aholini xabardor qilish, ularni qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Bu muammolar yechimi uchun O‘zbekiston qator choralarni ko‘rmoqda. Qonunchilikni isloh etish bo‘yicha aniq rejalar ishlab chiqilgan. JST talablariga muvofiq qonunlarni o‘zgartirish va yangilarini qabul qilish jarayoni jadallashgan. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari amalga oshirilmoqda. Imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari va eksportni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilgan. JSTga a’zolik bo‘yicha targ‘ibot ishlari olib borilmoqda.

### Monopoliyaga chek qo‘yadi

Yana bir gap. Jahon savdo tashkilotining uchta muhim tamoyili mavjud. Birinchisi, xalqaro savdoni liberallashtirish hisoblanadi. Ikkinchisi, tashkilotga a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi savdo bitimlarining oshkora bo‘lishini ta’minlash. Uchinchisi, mamlakatlararo raqobat muhitini tashkil qilish. Ya’ni ushbu tashkilot mamlakat ichidagi monopolist kompaniyalar va protektanizm siyosatiga barham beruvchi hisoblanadi. Bu talabning ahamiyatli tomoni shundaki, birinchi navbatda, a’zolikka kirmoqchi davlatning iqtisodiyoti erkin va jahon bozori uchun eshiklari ochiq bo‘lishiga yordam beradi. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytiradi.

Chunki mamlakatda monopol kompaniyalar ko‘p bo‘lsa, bu iste’molchilarning huquqlarini cheklaydi. Qayerda monopoliya bo‘lsa, o‘sha yerda sifatsiz mahsulot ko‘payib ketadi. Monopoliya sharoitida talabni ishlab chiqaruvchi qo‘yadi. Shu nuqtayi nazardan konstitutsiyaviy islohotlar o‘tkazilayotgan kezlarda Asosiy Qonunning 67-moddasiga yangi bir o‘zgartirish kiritildi. Unga ko‘ra davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta’minlaydi. Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o‘z yo‘nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli. O‘zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag‘larning erkin harakatlanishi kafolatlanadi. Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi.

Bizga yoqmasligi mumkin bo‘lgan yana bir talab borki, JSTga a’zo bo‘lmoqchi bo‘lgan davlat mahsulot import qilayotgan korxonalarga o‘zida mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan teng sharoit yaratib berishi zarur. Boz ustiga, Jahon savdo tashkilotiga kirish uchun 15 ga yaqin bitimlar imzolanishi kerak.

Agar O‘zbekiston shu shartnoma shartlarini bajarishni o‘z bo‘yniga olib, unga imzo cheksa, O‘zbekistonning JSTga kirishi ancha tezlashadi. Jahon savdo tashkilotiga eng qisqa vaqt ichida qo‘shilgan davlat bu – Qirg‘iziston. U 3 yilda a’zo bo‘lgan. Tashkilotga eng uzoq vaqt davomida qo‘shilgan mamlakat bu – Rossiya. RF 23 yil deganda qabul qilingan. O‘zbekiston tashkilotga a’zo bo‘lish uchun 1994-yilda ariza topshirgan, agar 2024-yil bilan hisoblasak,



O‘zbekistonning JSTga kirish bo‘yicha ariza berganiga 31 yil bo‘ldi. Biz Rossiyaning rekordini yangiladik. Jahon savdo tashkilotiga 2-3 yildan keyin qo‘shilamiz, deyish qiyin. Nega tashkilotga qo‘shilishimiz bu darajada cho‘zilib ketgan? Birinchidan, o‘sha vaqtda bizning iqtisodiyotimiz yopiq bo‘lgan.

Ikkinchidan, O‘zbekiston protektanizm siyosatini olib borgan. Ya’ni tashqaridan kiruvchi mahsulotlarga katta bojlar joriy qilgan. Uchinchidan, konvertatsiya masalasi juda muammo edi. Mana shu omillar sababli O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish masalasi cho‘zilib ketgan. 2005-yilda JSTga qo‘shilish masalasi hatto mutlaqo yopilgan edi. Faqatgina Prezident Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi bilan biz JSTga a’zolik bo‘yicha intilishlarimizni tikladik.

Agar O‘zbekiston JSTga oldinroq a’zo bo‘lganida edi, hozir aholining turmush tarzi mutlaqo o‘zgacha bo‘lar edi. O‘zbekiston tashkilotga qo‘shilgach, bizning bozorlarimizga arzon va sifatli mahsulotlar kirib kela boshlaydi. Xalqimizda tanlov imkoniyatlari kengayadi. Misol uchun, O‘zbekistondagi avtomobil bozoriga elektromobillar kirib kelgach, avtomobil bozoridagi narxlarning pasayishiga olib keldi. Agar mamlakatda monopol kompaniya bo‘lsa, u ishlab chiqaradigan mahsulotning narxi jahon bozoridagi narxga nisbatan bir necha barobar qimmat bo‘ladi. Bu narsa aholining turmush darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Oddiy misol, JSTga a’zo davlat bilan O‘zbekistonning energetik holatini solishtirib ko‘ring. Juda katta farqni ko‘rasiz. Jahon savdo tashkiloti mamlakat ichida sog‘lom raqobat muhiti bo‘lishini ta’minlaydi.

### Ayrim salbiy tomonlari ham mavjud

Mamlakatimizda sog‘lom raqobat sharoiti bo‘lmagani uchun aholi qishda ayrim qiyinchiliklarga duch keladi. Agar bozor ochiq bo‘lsa, bizga arzon xomashyo ham kirib keladi. JSTga a’zo bo‘lsak, iqtisodiyotimizning immuniteti oshadi. Agar qo‘shilishimiz cho‘zilib ketsa, iqtisodiyotimizning immuniteti pasayib ketadi. Jahon savdo tashkilotiga qo‘shilishimizning ayrim salbiy tomonlari ham mavjud. Agar tashkilotga a’zo bo‘lsak, bizga katta miqdorda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari kirib keladi. Bu, o‘z navbatida, bizning agrar tizimimizga ta’sir qiladi. Lekin Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishimiz korrupsiya va “xufiyona iqtisodiyot” ko‘lamini kamaytiradi. O‘zbekiston JSTga qo‘shilsa, uning geografik joylashuvi iqtisodiy imkoniyatlarni oshiradi

Hozirgi kunda ushbu tashkilotning har bir a’zosi O‘zbekiston tovarlariga istalgan hajmda tariflar kiritishi mumkin. O‘zbekiston tashkilotga a’zo bo‘lgach, ular bunday choralarni amalga oshirishi imkonsiz bo‘ladi. Ya’ni bunda tashkilot a’zolariga bojxona to‘lovlarini kamroq to‘lash yoki umuman to‘lamaslik imkoniyati paydo bo‘ladi. Bundan tashqari, tashkilotning barcha a’zo mamlakatlari bozorlariga kirish uchun teng huquqli sharoit vujudga keladi. Mamlakatimizda raqobat muhiti yaxshilanadi va monopoliyaning oldi olinishiga erishiladi, inflyatsiya darajasi kamayadi.

Yana bir muhim mulohaza. Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ham tayanch oliy ta’lim tashkiloti sifatida JSTga a’zo bo‘lish borasida mamlakatimizda so‘nggi yillarda olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini kengroq targ‘ib qilish, uning zaruriyatini ilmiy jihatdan asoslab berish borasida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Universitetimizda xalqaro standartlar asosida “Savdo ishi” ta’lim yo‘nalishida mutaxassislar tayyorlanayotganligi ham JSTga a’zo bo‘lish borasidagi sa’y-harakatlardan biridir.

Shu o‘rinda 23-may kuni universitetimizda turli vazirliklar, iqtisodiyot sohasi va tarmoqlari mutaxassislari ishtirokida o‘tkazilgan “Yashil” iqtisodiyot sharoitida barqaror savdo strategiyalari: muammo va yechimlar” mavzuidagi respublika konferensiyasi – bu nafaqat ilmiy mulohazalar maydoni, balki mamlakatimizda barqaror iqtisodiy siyosat yuritishda hamda JSTga a’zo bo‘lish borasida muhim platforma hisoblanadi.

*Darhaqiqat, O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishi milliy manfaatlarimizga xizmat qiluvchi strategik qadamdir. Bu jarayon mamlakatimizni jahon iqtisodiyotiga yanada chuqurroq integratsiyalashtirish, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish va iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishda muhim o‘rin tutadi. JSTga a’zo bo‘lish orqali O‘zbekiston investitsiyaviy jozibadorlikni oshiradi, xalqaro savdo qoidalariga mos ravishda ichki islohotlarni chuqurlashtiradi va barqaror rivojlanishga mustahkam poydevor yaratadi. Biz ko‘zlayotgan ulug‘vor maqsad ham aslida shu.*

**To‘lqin TESHABOYEV,**
**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.**

Taqdimot

## “OSMONI FALAKLARDA”

### Poytaxtimizda taniqli yozuvchi Xayriddin Sulton qalamiga mansub shu nomdagi kitobning taqdimoti bo‘lib o‘tdi

Bugungi kunda yangi O‘zbekistonda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida barcha jabhalar qatori ilm-fan, ta’lim-tarbiya, madaniyat, san’at va adabiyot, jumladan, kitob va kitobxonlik masalalariga yuksak e’tibor qaratilayotgani jamoatchiligimizga yaxshi ma’lum. Xususan, jamiyatimizda aholining madaniy saviyasi va mutolaa madaniyatini yuksaltirishga doir muhim hujjatlar ijrosini ta’minlash yuzasidan boshlangan katta ishlar, milliy dasturlar izchil davom ettirilmoqda.

Yoshlar orasida kitobxonlikni rivojlantirish va targ‘ib qilish vazifasi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilangani ham ushbu masalaga qanchalik jiddiy e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi.

Ayni shu ezgu maqsadda mamlakatimiz miqyosida “Yosh kitobxon”, “Zukko kitobxon”, “Yosh kitobxon oila” singari qiziqarli tanlovlar, “Yoshlar uchun ming kitob”, “Ma’rifat ulashib”, “Kitob karvoni” aksiyalari, kitob bayramlari va yarmarkalari muntazam tashkil qilinmoqda.

Yaqinda Farg‘ona viloyatida Xalqaro kitobxonlik festivali yuksak saviyada uyushtirilib, unda dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlaridan kitobsevarlar, taniqli shoir va yozuvchilar, ziyolilar ishtirok etgani yana bir muhim voqea bo‘ldi.

Hozirgi kunda respublikamizda 600 dan ziyod nashriyotlar, 700 ga yaqin kitob do‘konlari, shu bilan birga, kitob yetkazib berish xizmatlari hamda onlayn savdo platformalari faoliyat yuritmoqda.

Bularning barchasi O‘zbekistonda kitobxonlik davlat e’tiboridagi muhim masala bo‘lib, mutolaa madaniyatini yuksaltirish umummilliy harakatga aylanayotganidan dalolat beradi.

Ayni paytda zamonaviy o‘zbek adabiyoti ham sezilarli yuksalish bosqichiga qadam qo‘yganini yaratilayotgan yangi-yangi badiiy asarlar misolida ko‘rish mumkin.

Kuni kecha poytaxtimizdagi muhtasham “Renessans” san’at saroyida mana shunday uziga xos asarlardan biri – “Osmoni falaklarda” nomli yangi kitob taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

*Taniqli yozuvchi Xayriddin Sulton qalamiga mansub ushbu kitob o‘zbek adabiyotida deyarli yoritilmagan mavzu – uchuvchilar hayotiga bag‘ishlanadi. Majoziy ma’noda “samo lochinlari” deb ataladigan mashaqqatli kasb egalarining muntazam mardlik va matonat talab etadigan faoliyati, ularning favqulodda holatlardagi qalb kechinmalari, qat’iyat va irodasi, sevgi va burchga sadoqat tuyg‘ulari chuqur dramatizm bilan tasvirlanadi.*

Kutilmagan, shiddatli voqealarga boy, keskin syujet yo‘nalishiga ega hikoyalarda bosh qahramonlarning ma’naviy jasorati va insoniy ojizliklari, odamzod ruhiyatining sirli jumboqlari betakror xarakterlar timsolida namoyon buladi.

Taqdimot marosimiga buyuk adibimiz Abdulla Qodiriyning: “Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo‘ydik, bas, biz har bir yo‘sunda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz va yangarishg‘a o‘zimizda majburiyat his etamiz”, degan so‘zlari bosh g‘oya sifatida tanlanganida chuqur ramziy ma’no bor.

Tadbir biz o‘rgangan, ko‘nikkan odatdagi kitob taqdimotlaridan mutlaqo boshqacha, yangicha shakl va noan’anaviy yo‘sinda tashkil etilganini alohida ta’kidlash joiz.

Teatrlashtirilgan sahnalar, nasriy, she’riy va musiqiy talqinlar, kinolavhalar yig‘ilganlarda unutilmas taassurot qoldirdi.

Taqdimot O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Madaniyat vazirligi, Kinematografiya agentligi, Ma’naviyat va ma’rifat markazi, “Uzbekistan airways” AJ va Badiiy akademiya hamkorligida tashkil etildi.

Mavzu va voqelikka yondashuv, shakl-shamoyil jihatdan yangicha talqinga ega ushbu kitob “Adabiyot” nashriyoti tomonidan chop etilgan.

**“Xalq so‘zi”.**

## Sport

### Stol tennisi: Toshkentda xalqaro musobaqa o‘tkaziladi

*Shu yilning 28 – 31-may kunlari Toshkent stol tennisi bo‘yicha “WTT Youth contender” tasnifidagi xalqaro musobaqaga mezbonlik qiladi.*



O‘zbekiston stol tennisi federatsiyasi matbuot xizmati xabar berishicha, mazkur turnirda 16 mamlakatdan 300 nafardan ortiq yoshlar stol tennisi g‘olibligi uchun bahs olib borishadi.

Bellashuvlar muhtasham “Humo arena” majmuasida o‘tkaziladi. Dasturga ko‘ra sportchilar “U11”, “U13”, “U15”, “U17” va “U19” yosh toifalarida ishtirok etishadi.

Mazkur nufuzli turnirda qatnashadigan yosh atletlarimiz hozirda o‘z murabbiylari bilan tayyorgarlik mashg‘ulotlarini o‘tkazishmoqda.

### Futbol: maxsus olimpiada chempionati yakuni

*Respublika olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazida sportning futbol turi bo‘yicha O‘zbekiston maxsus olimpiada chempionati bo‘lib o‘tdi.*



Ikki kun davom etgan ushbu musobaqada Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlardan maxsus maktab-internatlar tarbiyalanuvchilaridan tashkil topgan jamoalar qatnashdi.

O‘yinlar 3 ta divizionda tashkil etilib, 1-divizionda Toshkent viloyati, 2-divizionda Surxondaryo viloyati va 3-divizionda Toshkent shahri jamoalari g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

Ishtirokchilarga esdalik sovg‘alari hamda diplomlar topshirildi.

### Shashka: qizg‘in bahs, murosasiz bellashuvlar

*Xorazmda o‘tkazilgan “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasidagi sportning shashka turi bo‘yicha “A” liga respublika final bosqichi yakunlandi.*




Yurtimizning turli hududlaridan saralanib, yakuniy final bosqichigacha yetib kelgan yoshlar sportning shashka turi bo‘yicha o‘zaro kuch sinashdi.

Qizg‘in bahs, murosasiz bellashuvlarga boy o‘tgan musobaqa yakunida bo‘lib o‘tgan taqdirlash marosimida g‘olib va sovrindorlarga diplom, medal hamda Sport vazirligining esdalik sovg‘alari topshirildi.

**“Xalq so‘zi”.**

REKLAMA

**Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumani Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tender e’lon qiladi**

Prezidentimizning 2025-yil 6-martdagi PQ-93- qarori hamda Sirdaryo viloyati Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining shu yil 20-maydagi 4-qarori ijrosini taminlash maqsadida Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumanidagi Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi 25-maktabning eski, yaroqsiz binosini demontaj qilish uchun barcha MCHJ rahbarlarini tijorat taklifi bilan yopiq konvert orqali tender tanlovida qatnashishga chaqiradi.

Manzil: Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumanidagi Maktabgacha va maktab ta’limi binosi. Mo‘ljal: Mirzaobod tumani hokimligi binosi orqasida. Uch qavatli binoning 2-qavati. Tender o‘tkaziladigan sana: 23-may soat 15:00. Murojaat uchun telefonlar: 94-352-51-52; 67-310-13-88.

**28 – 31-may kunlari “Orol dengiziga poyezd” yoshlar ekologik aksiyasi tashkil qilinadi.**

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir R. Bobojonov.
Musahhih Sh. Mashrabboev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 04.10 Topshirildi — 04.35 1 2 3 4 5 6